



O'quvchilarni ham kasbga, ham imtihonga tayyorlash - vazifamiz bo'lishi lozim

Toshboyeva Nasiba Abdug'afurovna

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani

85-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini erta anglash, aniqlash, ularni o'stirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim tavsiyalar bayon etilgan. Maqola maktab amaliyotchi psixologlari, pedagoglar, ota-onalar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Iste'dod, qobiliyat, qobiliyatni o'stirish usullari.

Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan davlat siyosati kishini Vatan ravnaqi uchun ezgu ishlarini amalga oshirishga undaydi. Xalq ta'limi tizimi xodimlariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar, qator imtiyozlar ta'lim-tarbiya siyosatini yangi bosqichga ko'tarishni zamon talab qilgan paytda, ayniqsa, o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklamoqda. Xususan, 2020-yilning 23-sentabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-fevraldagi "Xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish to'g'risida" PQ-53- son Qaror mazmun-mohiyati bugungi kun pedagoglaridan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va erkin ijod qilishga o'rgatish, qobiliyatli o'quvchilarni izlab topish va ularni o'stirish, har bir o'quvchini jamiyatga kerakli komil inson qilib yetishtirishdek juda katta mas'uliyatli va mashaqqatli vazifalarni talab etadi.



Yangi qabul qilingan Qonunga muvoffiq umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich, tayanch o'rta va o'rta ta'lim bosqichlaridan iborat bo'lib, boshlang'ich ta'limda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Tayanch o'rta ta'lim esa o'quvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmni beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirilishini nazarda tutadi. O'rta ta'lim esa o'quvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini va yuqori malaka talab qilmaydigan kasblar egallanishini talab qiladi. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'limning maqsadi – o'quvchilarni zarur bilim, malaka, ko'nikma va birlamchi kasblar bilan qurollantirish, ularni hayotga tayyorlashdan iborat.

Lekin bu maqsadning yana bir tomoni borki, umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarni ta'limning keyingi turlarini egallashga poydevor yaratadi. Umumiy o'rta ta'limdan so'ng o'quvchilarning ayrimlari, ya'ni qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilar o'zlari qiziqqan soha bo'yicha ta'limni davom ettirishlarini e'tiborga olish juda muhim. Shunday ekan, biz o'qituvchilar ta'lim muassasalarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda eng avvalo iqtidorli bolalarga, ularning qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlab, rivojlantirishga e'tibor qaratmog'imiz lozim. Chunki ular nafaqat, maqsadga intiluvchan, qat'iyatli, faol aqliy mehnat qiluvchi, mustaqil izlanuvchi, balki ularda yuksak rivojlangan mas'uliyat hissi orqali boshqa o'quvchilarga ibrat-namuna bo'lib, tengdoshlarini o'z ortidan ergashtira oladigan yoshlar vakili hisoblanadi.

Qobiliyatlar shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma, malakalarni egallash jarayonida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyat bo'lib,



qobiliyatli o'quvchilarni yetishtirib chiqarish uchun qobiliyatli o'quvchilarni izlash, erta aniqlash, tayyorlash va rivojlantirish zarur.

Bu vazifalarni ketma-ketlikda amalga oshirishning asosiy maqsadi – bu respublikamizning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash, ularga ko'maklashish, iste'dod vakillariga bilimlarining tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha maxsus qobiliyatlarini namoyish etish va rivojlantirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Qobiliyatni namoyon bo'lishiga xalaqit beruvchi omillardan biri zaruriy bilim kunikma, malakalarni etishmasligidir. Agar bola zaruriy bilimlarni o'zlashtirsa uning iqtidori namoyon bo'la boshlaydi. Qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash maxsus psixologik va pedagogik test o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Psixologik testlar o'tkazilgach, ko'p hollarda ularning natijasi qog'ozda qolib ketadi. Fikrimizcha, o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatiga ko'ra ularni maqsadli tayyorlashda maktabda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. Qobiliyatli o'quvchilarni chuqur bilim olishga va iqtidorlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ularni ham hayotga, ham tom ma'noda imtihonga tayyorlash. Buning uchun o'quvchilarni o'zi tanlagan soha bo'yicha imtihonga tayyorlash rejasini ishlab chiqish.
2. Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan mavjud metod birlashmalar qoshida "...fanlar kichik kafedrası" ni tashkil etish. Jumladan, "Ona tili va adabiyot hamda xorijiy tillar kichik kafedrası", "Aniq fanlar kichik kafedrası", "Tabiiy fanlar kichik kafedrası", "Ijtimoiy gumanitar fanlar kichik kafedrası", "Jismoniy tarbiya va estetik fanlar kichik kafedrası" singari.
3. O'quvchilarni 5-sinfdan boshlab qobiliyatiga ko'ra muayyan "...fanlar kichik kafedrası" ga a'zo qilish.



- Malakali mutaxassis o'qituvchilarni qobiliyatli o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashga jalb etish. Bu orqali qobiliyatli o'quvchilarni "Fanlar olimpiadasi" kabi tanlovlarda faol ishtirokini ta'minlanadi va nihoyat ularning oliy o'quv yurtlari imtihonlaridan a'lo darajada o'tishlari kafolatlanadi.

Maktabda qobiliyatli o'quvchilarning intellektual salohiyatini muntazam ravishda aniqlab borish, qobiliyatli o'quvchilarning qiziqishlariga qarab ularni maqsadli tayyorlashni uyushtirish, qobiliyatli o'quvchilarning qobiliyatlarini namoyon qilishga o'rgatish hamda "...fanlar kichik kafedrası"da ularning ilmiy ishlari va ijodiy-tashkiliy ishlanmalarini tayyorlashda ko'maklashish, qobiliyatli o'quvchilarni ilm va fan arboblari, ishlab chiqarish korxonalarining rahbarlari, yuridik mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etish, zamonaviy axbort- texnologiyalaridan foydalanishlariga shart-sharoitlar yaratib berish lozim.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'lishicha "qobiliyatli o'quvchilar" - shartli ravishda: ular muayyan yosh davridagi aqliy imkoniyatlarni anglatadi. Ularni erta aniqlash, iqtidorlarini ro'yobga chiqarishda jahon miqiyosidagi buyuk kashfiyotlarni, jamiyatimiz asoslarini, uning poydevorini tashkil etgan ulug' allomalarimiz merosiga tayangan holda bugungi zamon talablaridan kelib chiqib, xalq farovonligiga, xizmat qiladigan buyuk kashfiyotlar yaratish ko'nikma va malakalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimli, iqtidorli bola, nafaqat o'zining, balki xalqning, millatning ham kelajagini belgilaydi. Shu bois yuqori aqliy imkoniyatlarga ega bo'lgan qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash va iqtidorlarini ro'yobga chiqarish borasidagi ishlar pedagoglarni doimo izlanishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga chorlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni – 2020 yil 23-sentabr
2. Qodirova M., Qarshiboyeva G., Abduvahobova D. – Psixodiagnostika (Uslubiy qo'llanma). "Bayoz" T:, – 2015.
3. Nishonova Z., Qurbonova Z. Psixodiagnostika va eksperimentel psixologiya. "Tafakkur bo'stoni" T.: 2011.
4. Karimova V. Psixologiya. "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi" T.:2002.